

KARAMZIN “BECHORA LIZA” QISSASIDA LIZA OBRAZI TAHLILI

Rajapova Nasiba

*Mamun universiteti “O’zga tilli guruhlarda rus tili”
yo’nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mashhur rus yozuvchisi Nikolay Mixaylovich Karamzining “Bechora Liza” qissasidagi Liza obrazlar tahlili va boshqa obrazlarning asardagi xarakteri haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: Liza, obraz, sevgi, xiyonat, qahramoni, Erast, taqdir, hayot, tuyg’u, xato, yakun, tajriba.

Nikolay Mixaylovich Karamzin 1792 yili o’zining mashhur “Bechora Liza” qissasini yozdi. Bu asar sentimentalism janrida yozilgan asarlardan biri hisoblanadi. Karamzining ushbu asarida asosan ayollar obrazi yoritilib berilgan. Asar bosh qahramoni Liza ismli yosh qiz bo’lib, voqealar rivoji uning hayotidagi ayanchli sevgisi va achinarli yakuni haqida boradi. Bu qissaning yana bir asosiy mavzulardan biri xiyonat mavzusi haqida yoritilib berilgan. Asar bosh qahramoni Liza yosh, otasiz katta bo’lgan, go’l, hayotda hali tajribali bo’lishga ulgurmagan qiz taqdiri haqida hikoya qilinadi. U onasi bilan yolg’iz yashardi. Uning hayoti bir tekisda borayotganida kutilmaganda uning hayotiga “sevgi” kirib keladi. Oldin bu tuyg’uni his qilmagan soddagina qiz uchun bu nihoyatda go’zal va nafis tuyg’udek tuyuldi go’yo. Ammo sevgi hamma uchun ham omadli kelavermaydi. Lizaning xarakteristikasiga keladigan bo’lsak, u juda sodda tuzilishga ega, hayotda ilk marta sevilgan, hali bunday tuyg’ular bo’yicha ko’nikmaga ega emas. Shu sababli ham uning taqdiri bu asarning asosiy mavzusiga aylandi. Asarning ikkinchi asosiy qahramoni bu Erast bo’lib, u ham Liza kabi yosh va navqiron yigitcha. Asarda Liza va Erast o’rtasidagi ayanchli yakun topgan hikoya tasvirlangan. Bunda bu sevgi qissasining yana bir tarafi oilalarining ijtimoiy holatiga ham aloqadordir. Buning sababi Liza kambag’al oila farzandi, Erast esa shuning aksidir. Erast bilan Liza munosabatlari jiddiylasha boshladi. Avvaliga yosh yigitning Lizaga bo’lgan munosabati chindek ko’rinadi kitobxonlar nazarida. Chunki Erast sevgisi haqida shirin hayollar sura boshlaydi. “men Liza bilan chin do’st bo’lib yashayman. Uning mhabbatiga hech qachon xiyonat qilmayman va bir umr baxtiyor yashayman”¹ deya hayollar sura boshlaydi. Shunday qilib Erast va Lizaning sevgi qissasi yana ikki oyga cho’ziladi. Oradan vaqt o’tgach esa Erast to’sattan armiya xizmatiga ketadigan

¹ “Bechora Liza” qissasidan

bo'ladi. Ana shu ondan boshlab esa ular o'rtasidagi sevgi asta sekin so'na boshlaydi. Avvalari har oqshom sevishganlar vaqtini birga o'tkazishar bo'lsa, endi ular uchun bunday vaqtlar bo'lmaydi. Yozuvchi bu obraz orqali Liza timsolida sodda, go'l, sevgini ilk bor his qilgan qizni ajoyib qilib tasvirlagan. Avvaliga qiz bu tuyg'u bilan juda go'zal hayotta yashadi, sevgini his qila oldi, lekin avval hayotida bunday vaziyatni boshidan o'tkazmagan inson sifatida Erastning Lizaga qilgan og'ir javobi qahramonimizni chinakamiga ta'sirlantirdi va asar achinarli yakun topishiga sabab bo'ldi. Erast ham to'g'ri yosh va mushohazasiz edi va shu yoshlik, tajribasizlik natijasida ko'plab xatolar qildi. U armiyada paytida hamma pullarini yutqazdi va o'zidan katta ayolga pul tufayli uylanishga majbur bo'ldi. Oxir oqibat u ilk sevgisidan ayrildi. Erastning bu qilgan xatoyini ko'pchilik sevgisini pulga alishdi deb ham tushunishi mumkin, lekin boshqa tarafdan olib qarasa yozuvchi bu obrazda yoshligida har kim ham qilishi mumkin bo'lgan xato tufayli mana shu ishlarga majbur bo'ldi deb ham ifodalagandek tuyuladi. Chunki Erastning yoshida inson qiziquvchan bo'ladi, natijasini o'ylamay ish qiladi, boshqalar ham qilayaptiku deya xafli o'yinlar o'ynaydi. Mana shu natijasini o'yamaslik shu kabi o'gir badal talab qiladi. Yozuvchi shu taraflama oddiy hayotdagi holatlarni ifodalay olgan. Liza esa o'zining ilk sevgisiga qaytarilgan javobdan juda qattiq ta'sirlanadi va o'zini o'ldirish bilan hayotini yakunlaydi. Bu obrazda sodda va shu bilan bir qatorda tuyg'ularga juda qattiq beriluvchan insonni ko'rishimiz mumkin. Erastning sevgisini haqiqiy deb bilgani uchun u Erastning boshqa ayolga uylanganligini qabul qila olmadi. Ilk sevgi uning hayotida boshqacha iz qoldirgan edi. U birdaniga qaltis qaror qabul qildi va hayotiga yakun yasadi. Yozuvchi bu obraz orqali hayot faqatgina sevgidan iborat emas, har bir sevgi ham yaxshilik bilan yakun topmasligi mumkinligini va Liza qilgan xatolar va o'ylanmay qilgan qarorlarini takrorlamaslik zarurligini ifodalab bera olgan.

Xulosa qilib aytganda har bir ishdan inson o'zi uchun kerakli bo'lgan tajribani ola oladi. Sevgi har xil yakun topishi mumkin. Yozuvchi sevgi qissasini yakuni har doim ham go'zal bo'lavermasligi haqida yozadi. Unsonning bu tuyg'u sababli o'zi uchun qadrli bo'gan narsalaridan ayniqsa hayotidan voz kechmaslik kerakligini boshqa insonlar uchun o'rnak sifatida ifodalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Toporov V.N. "Bechora Liza" Karamzin- Moskva: RGGU, 1995 yil.
- 2 "Jahon adabiyoti" jurnali, 2017 yil, 11-soni.
- 3 Karamzin "Bechora Liza" - "O'zbekiston", Toshkent, 2020 yil.
- 4 Mutolaa.uz'